



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025 yil 18-fevral, № 34 (8929)


Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



## O'ZBEKISTON — KUVAYT: KO'P QIRRALI ALOQALAR YANADA MUSTAHKAMLANADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Kuvayt Davlati Amiri Shayx Mish'al as-Sabohning taklifiga binoan 17-fevral kuni rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakatga keldi.



Al-Kuvayt xalqaro aeroportida davlatimiz rahbarini Amir Shayx Mish'al as-Saboh, Vahid Shayx Saboh as-Saboh va boshqa rasmiylar kutib oldi.

O'zbekiston yetakchisining tashrifi sharafiga faxriy qorovul saf tordii, davlat bayroqlari ko'tarildi, ikki mamlakat madhiyalari yangradi.

Prezidentimiz faxriy qorovul safi oldidan o'tdi. So'ng davlat rahbarlari rasmiy delegatsiyalar a'zolari va diplomatik korpus vakillarini qutladilar.

Aeroportning Amir terminalida yetakchilar o'rtasida qisqa suhbat bo'lib o'tdi.

Shundan so'ng Al-Kuvayt shahridagi "Al-Bayan" saroyida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Kuvayt Davlati Amiri Shayx Mish'al as-Saboh tor doirada uchrashuv hamda rasmiy delegatsiyalar a'zolari ishtirokida muzokara o'tkazdilar.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari ko'rsatilayotgan samimiy qabul va yuksak e'tibor uchun Amirga minnatdorlik bildirib, Kuvayt yetakchisi va do'st xalqini yaqinlashib kelayotgan milliy bayramlar bilan dildan qutladi.

O'zbekiston bilan Kuvayt o'rtasidagi do'stlik va ko'p qirrali sheriklik munosabatlari yanada rivojlanish va mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi.

Prezidentimiz Kuvaytda muvaffaqiyatli amalga oshirilayotgan, maqsad va vazifalari Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasining uzoq muddatli ustuvor yo'nalishlariga hamohang bo'lgan "Nigoh 2035" davlat dasturini alohida qayd etdi.

Faol siyosiy muloqotlar va idoralararo almashinuvlar, o'zaro tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmi barqaror ortib borayotgani mamnuniyat bilan ta'kidlandi.

O'tgan yili Hukumatlararo komissiyaning birinchi yig'ilishi samarali o'tkazildi, qator muhim ishlabarmonlik tadbirlari tashkil etildi.

Savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, innovatsion va moliyaviy-texnik sohalaridagi hamkorlik masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

"Yashil" energetika, sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo'jaligi, transport va logistika, infratuzilma, shaharsozlik, sog'liqni saqlash, turizm sohalarida amaliy hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari sifatida belgilandi.

Qo'shma loyihalarni ilgari surish maqsadida Investitsiya platformasi va Ishbilarmonlar kengashi kabi mexanizmlarni yo'lga qo'yish, shuningdek, Al-Kuvayt shahrida savdo uyini ochish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Yangi sheriklik dasturi doirasida Kuvayt arab iqtisodiy taraqqiyot jam'armasi bilan loyihalar portfelini kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, O'zbekiston va Kuvaytda madaniyat va turizm haftaliklarini o'tkazish, ikki mamlakat vakillarining san'at, musiqa, kino, ta'lim va sport sohalaridagi madaniy-gumanitar tadbirlarda faol ishtirok etishiga ko'maklashishga kelishib olindi.

Uchrashuvda Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Islom hamkorlik tashkiloti, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Qo'shilmaslik harakati va boshqa nufuzli tuzilmalar doirasida o'zaro qo'llab-quvvatlashni davom ettirish muhimligi qayd etildi.

Joriy yil may oyida Samarqand shahrida o'tkaziladigan "Markaziy Osiyo — Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi" muloqoti sammitiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha qo'shma chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Yetakchilar xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

Muzokaralar yakunida ikki davlat rahbarlari keng qamrovli sheriklikni rivojlanish va mustahkamlashga qaror qildilar.

Muzokaralar yakunida O'zbekiston Prezidenti Kuvayt Amiri mamlakatimizga tashrif bilan kelishga taklif etdi.

Al-Kuvayt shahrida bo'lib o'tgan muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Kuvayt Davlati Amiri Shayx Mish'al as-Saboh O'zbekiston — Kuvayt keng qamrovli sheriklik munosabatlari rivojlanishini o'zaro qo'llab-quvvatlash va o'zaro tashriflarni tashkil etishga kelishib olindi.

Shuningdek, quyidagi hujjatlar imzolandi:

— Sanoat sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;

— Havo qatnovi to'g'risidagi bitimga bayonnomma;

— Mehnat sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;

— "Aqlli" shaharlarni barpo etish sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;

— San'at va madaniyat sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;

— Sog'liqni saqlash sohasidagi hamkorlik to'g'risida bitim;

— Turizm sohasida 2025 — 2027-yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi;

— Kuvayt arab iqtisodiy taraqqiyot jam'armasi bilan hamkorlik to'g'risida bitim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Kuvaytga tashrifi doirasida faol iqtisodiy taraqqiyot jam'armasi bilan hamkorlik to'g'risida bitim.

Kuvaytga amalga oshirilayotgan tarixiy tashrif davomida erishilgan kelishuvlar doirasida faol siyosiy muloqotni davom ettirish, savdo-iqtisodiy va investitsiyamoliyaviy hamkorlikni kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Oziq-ovqat xavfsizligi, sanoat kooperatsiyasi, infratuzilma, turizm va boshqa yo'nalishlarda loyihalarni ilgari surish hamda mamlakatlar o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratildi.

Tashrifning ishlabarmonlik dasturi doirasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Fouad Alghanim & Sons" kompaniyasi rahbari Fadi Xaddadni qabul qildi.

1965-yilda tashkil etilgan xolding avtomobilsozlik, qurilish, energetika, neft-gaz, savdo, kema qurilishi, aviatsiya, telekommunikatsiya, turizm va ko'chmas mulk sohalarida faoliyat yuritmoqda.

"Fouad Alghanim & Sons" kompaniyasining davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida sog'liqni saqlash va ta'lim obyektlarini qurish rejalari qo'llab-quvvatlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev "Agility Logistics" kompaniyasi raisi Xenadi al-Solih bilan uchrashuv o'tkazdi.

1979-yilda tashkil etilgan transmilliy logistika kompaniyasi bu sohada dunyoning eng yirik korxonalaridan bo'lib, 70 dan ortiq mamlakatlarda faoliyat yuritmoqda. Aviatsiya xizmatlari, sanoat omborlari, logistika parklari, xizmatlarni raqamlashtirish kabi yo'nalishlarda ish olib bormoqda.

Uchrashuvda Ko'rfaz mamlakatlariga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini samarali yetkazib berish uchun O'zbekistonda qo'shma logistika markazini tashkil etish bo'yicha istiqbolli loyihaga alohida e'tibor qaratildi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev "Action Group Holdings" kompaniyasi rahbari Shayx Muborak as-Sabohni qabul qildi.

1998-yilda tashkil etilgan xolding faoliyati

sohalarida qo'shma loyihalarni amalga oshirish qo'llab-quvvatlandi.

Davlatimiz rahbari "Gulf Care General Trading" kompaniyasi rahbari doktor Iyad as-Solihni qabul qildi.

2001-yilda tashkil etilgan kompaniya Ko'rfaz mintaqasida tibbiy uskunalarning eng yirik yetkazib beruvchilaridan biri bo'lib, Kuvaytdagi xususiy tibbiyot muassasalarining keng tarmog'ni egasidir.

Mamlakatimiz yetakchisi kasalliklarni barqaratib aniqlash sohasidagi sheriklik rivojlanib borayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi. Kompaniyaning mamlakatimiz hududlarida tibbiy xizmat ko'rsatish va farmatsevtika mahsulotlarini ishlab chiqarish loyihalarini amalga oshirish borasidagi rejalari qo'llab-quvvatlandi.

Tashrif dasturiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Al-Kuvayt shahridagi "As-Salom" saroy-muzeyiga tashrif buyurdi.

Saroy 1960 — 1964-yillarda o'ziga xos arab me'morchiligi uslubida bunyod etilgan va 1990-yilgacha Kuvaytga tashrif buyurgan xorijiy rahbarlar uchun rasmiy qarorgoh bo'lib xizmat qilgan.

2019-yilda saroyda muzey ochilgan bo'lib, unda 32 ming kvadrat metr maydonda Kuvaytning ko'p asrlik tarixi va madaniyatini aks ettiruvchi noyob eksponatlar namoyish etilmoqda.

Davlatimiz rahbari muzey ekspozitsiyasi bilan tanishib, uning me'moriy konsepsiyasi va zamonaviy infratuzilmasini yuqori baholadi.

O'zbekiston bilan Kuvayt madaniy almashinuvlarini, xususan, muzey ishi va tarixiy merosni asrash sohasidagi aloqalarni kengaytirish, qo'shma gumanitar dasturlarni amalga oshirish va o'zaro ko'rgazmalar tashkil etish muhimligi qayd etildi.

Yakunda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev muzeyning Faxriy mehmonlar kitobida dastxat yozib qoldirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Kuvayt Davlatiga rasmiy tashrifi davom etmoqda.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati suratlari.

## YAQIN SHARQDAGI ISTIQBOLLI HAMKOR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Kuvaytga rasmiy tashrifi munosabati bilan ushbu mamlakat ommaviy axborot vositalarida yurtimiz salohiyati, iqtisodiy va siyosiy imkoniyatlari, ikki davlatning barcha sohadagi hamkorligi yuzasidan maqolalar chop etilmoqda.

### Dunyo nigohi

Ingliz tilida nashr qilinadigan "The Times Kuwait" bosh haftalik yangiliklar jurnalining 2025-yil 16 — 22-fevral kunlariga mo'ljallangan sonining o'rtasida O'zbekiston va uning Kuvayt davlati bilan aloqalariga bag'ishlangan maqolalarni o'qish mumkin. Masalan, mamlakatimizning Kuvaytdagi Favqulodda va muxtor elchisi Ayubxon Yunusovning "Kuvayt ishonchli do'st, O'zbekistonning sinovdan o'tgan sherigi" (Kuwait a reliable friend, trusted partner of Uzbekistan)

nomli maqolasida ikki mamlakatning hamkorligi sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilayotgani, siyosiy, savdo-iqtisodiy, ilm-fan, sarmoya va boshqa yo'nalishlardagi aloqalari haqida so'z boradi.

Maqolada aytilishicha, Kuvayt O'zbekistonning Yangin Sharqdagi ishonchli do'sti va hamkori hisoblanib, 1991-yil 30-dekabrda O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini birinчилardan bo'lib tan olgan. O'shandan buyon ikki davlat o'rtasidagi do'stona munosabatlar tinchlik, iqtisodiy taraqqiyot va ikki xalqning farovonlikka intilishidagi musharakligiga asoslanadi.



## O'ZBEKISTONNING KO'RFAZDAGI ISHONCHLI SHERIGI

Tashqi siyosati yildan-yilga faollashib borayotgan mamlakatimizning sheriklik geografiyasi kengaymoqda. Bunda arab mamlakatlariga ham alohida o'rin ajratiladi, ulardan biri energiya zaxiralarga boy, Yaqin Sharq va Ko'rfazning qudratli iqtisodiy salohiyatli davlati — Kuvayt.

### Nuqtai nazar

Bu davlat O'zbekistonning Yaqin Sharqdagi ishonchli do'sti hamda hamkori. Madaniy, tarixiy va diniy qadriyatlar, urf-odat va an'analar ikki davlat o'rtasidagi aloqalarni jadallashtirishda tabiiy katalizator vazifasini o'tamoqda. 2020-yildan buyon qariyb yetti barobar o'sgan tovar aylanmasining asosiy yo'nalishlarini xizmatlar, mineral yoqilg'i, oziq-ovqat va kimyo mahsulotlari tashkil etadi.

Tahlillar o'zaro mahsulotlar yetkazib berish,



qo'shma korxonalar ochish, yirik mintaqaviy bozorlarga chiqish uchun imkoniyatlardan to'liq foydalanish zarurligini ko'rsatmoqda. Shu ma'noda, 2024-yilning may va avgust oylarida u yerda ikkita biznes-forum hamda O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlar ko'rgazmasi uyushtirildi. O'z navbatida, yurtimizda Kuvayt biznes delegatsiyasi ishtirokida biznes-forum o'tkazildi.

Ta'kidlash kerakki, ikki davlatning tashqi siyosat konsepsiyalari bir-biriga o'xshash.

## MAMLAKATIMIZ ERISHGAN YUTUQLAR YUQORI BAHOLANDI

Birlashgan Millatlar Tashkiloti qarorgohida BMT Bosh Assambleyasi va Parlamentlararo Ittifoq (PI) assambleyasi raislari tomonidan tashkil etilgan "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda harakatlar ko'laminii kengaytirish" mavzuidagi yillik parlament eshituvlari bo'lib o'tdi.

### E'tirof

Forumda 60 dan ortiq davlatlardan parlament spikerlari, qonun chiqaruvchi organlar a'zolari, maslahatchi va ekspertlar, a'zo davlatlarning BMTdagi doimiy vakillari ishtirok etdi.

Unda Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirish, zarur resurslar va vositalarni safarbar etishda BMT va PI o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi.





Oliy Majlis Senatida

KORRUPSIYAGA QARSHI KURASHISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH – JAMIYAT TARAQQIYOTI ASOSI



Oliy Majlis Senatida Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi.

Majlisda mamlakatimizda korruptsiyaga oid jinoyatlar 12 foiz kamaygani, xalqaro reytinglarda mamlakatimiz o'rnini yaxshilangani ta'kidlandi.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar hamda Sog'liqni saqlash vazirliklarining axborotlari eshittildi.

xizmatchilarining korruptsiyaga qarshi kurashish sohasidagi bilimni uzluksiz oshirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlarining ijro holati ko'rib chiqildi.

"Xalq so'zi".

Siyosiy partiyalar fraksiyalarida

INSON HUQUQLARIGA MOS VA HAMOHANG

Kecha siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalari yig'ilishlari bo'lib o'tdi.



Jumladan, Tadbirkorlar va ishbilanmonlar harakati – O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 14-fevral kuni yoshlar bilan uchrashuvining ahamiyatiga to'xtalib o'tildi.

muhojama qilindi. Ta'kidlanganidek, so'nggi yillarda intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarning himoyasi borasida ko'plab amaliy ishlar bajarilayotgan bo'lishiga qaramay, ushbu sohadagi huquqbuzarliklar soni kamaymayapti.

Deputatlar Prezident tomonidan bildirilgan taklif va tashabbuslar partiyaning yoshlar uchun manfaatli ish o'rinlarini yaratish, tadbirkorlikni mohiyatlashirishga ko'maklashish hamda ularning startap loyihalari qo'llab-quvvatlash kabi vazifalari ijrosi uchun muhimligini ta'kidlashdi.

Ushbu qonun loyihasi bilan tegishli kodekslardagi mualliflik huquqi bilan bog'liq javobgarlik choralari yanada kuchaytirilmoqda.

Yig'ilishda nizolarni muqobil hal etishda mediatsiya institutini rivojlantirishga qaratilgan qonun loyihasi ham muhojama markazida bo'ldi.

Deputatlar ushbu qonun loyihasi jamiyatda intellektual mulk huquqiga bo'lgan hurmat hissini shakllantirish va intellektual mulk egalari moddiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilganini e'tiborga olib, uni qo'llab-quvvatlashdi.

Ushbu loyihani ishlab chiqishdan keladigan asosiy maqsad – nizolarni sudgacha hal qilish mexanizmlarining amaliyotda samarali ishlashini ta'minlash, mediatsiya sohasining huquqiy asoslarini mustahkamlash orqali sudlarning ish yuklamasini kamaytirishga erishishdan iborat.

Deputatlar ushbu qonun loyihasi jamiyatda intellektual mulk huquqiga bo'lgan hurmat hissini shakllantirish va intellektual mulk egalari moddiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilganini e'tiborga olib, uni qo'llab-quvvatlashdi.

Ushbu loyihani ishlab chiqishdan keladigan asosiy maqsad – nizolarni sudgacha hal qilish mexanizmlarining amaliyotda samarali ishlashini ta'minlash, mediatsiya sohasining huquqiy asoslarini mustahkamlash orqali sudlarning ish yuklamasini kamaytirishga erishishdan iborat.

Deputatlar ushbu qonun loyihasi jamiyatda intellektual mulk huquqiga bo'lgan hurmat hissini shakllantirish va intellektual mulk egalari moddiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilganini e'tiborga olib, uni qo'llab-quvvatlashdi.

Ushbu loyihani ishlab chiqishdan keladigan asosiy maqsad – nizolarni sudgacha hal qilish mexanizmlarining amaliyotda samarali ishlashini ta'minlash, mediatsiya sohasining huquqiy asoslarini mustahkamlash orqali sudlarning ish yuklamasini kamaytirishga erishishdan iborat.

Deputatlar ushbu qonun loyihasi jamiyatda intellektual mulk huquqiga bo'lgan hurmat hissini shakllantirish va intellektual mulk egalari moddiy manfaatlarini himoya qilishga qaratilganini e'tiborga olib, uni qo'llab-quvvatlashdi.

MAMLAKATIMIZ ERISHGAN YUTUQLAR YUQORI BAHOLANDI

Mamlakatimizning BMTdagi doimiy vakili, elchi Ulug'bek Lapasov O'zbekistonda Barqaror rivojlanish maqsadlarini amalga oshirish, qat'iy parlament nazoratini ta'minlash borasidagi keng ko'lami chora-tadbirlar haqida so'zlagi.



tashabbusi bilan va dunyoning barcha mintaqasidan 80 dan ortiq davlatlar hammuallifligida "Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadallashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risida"gi rezolyutsiyani qabul qilindi.

komissiyasi faoliyati bilan tanishdi. "Yo'l xaritasi" qabul qilinishi, ulkan resurslar safarbar etilgani urg'ulandi.

"Dunyo" AA. Nyu-York

RAVON YO'LLAR MANZILNI YAQIN QILADI

Oliy Majlis Senatining 2025-yilga mo'ljallangan ish rejasiga muvofiq sifatli yo'l qurilishining oldini olish maqsadida parlament nazoratini kuchaytirish yuzasidan o'rganish ishlari olib borilmoqda.

O'rganish

Shu munosabat bilan Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi K. Burhonov boshchiligidagi ishchi guruh a'zolari Xorazm viloyatiga xizmat safari uyushtirdi.

sifati ustidan qat'iy nazorat o'rnatish muhimligi ta'kidlandi.

Urganch tumanidagi asfalt-beton ishlab chiqarish sexi va uning qoshidagi asfalt sinov laboratoriyasining faoliyati ham o'rganildi.

Senator bu yerda sohada uchrayotgan muammolari o'rganib, hal etish yuzasidan takliflarini bildirdi.

"Xalq so'zi".

VAKOLAT VA MAS'ULIYAT

"O'zbekiston – 2030" strategiyasida xalq xizmatidagi davlat boshqaruvi tashkil etish va jamoatchilik boshqaruvi takomillashtirish bo'yicha islohotlarda markaziy e'tibor mahallalarga qaratilgan.

Munosabat

Davlatimiz rahbari tomonidan shu yil 11-fevral kuni imzolangan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonun ham strategiya doirasida ishlab chiqilgan bo'lib, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatining huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratilgan.

mas'uliyat ham quyi tizimga tushirilmoqda. Natijada mahalla har bir oila va inson muammosi, dardu tashvishiga chuqur kirib bora oladigan xalqchil tuzilma sifatida yanada faollashadi.

"Mahalla yetiligi" har bir vakilining mahallani ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi turmush darajasini yaxshilash, sog'lom ma'naviy muhitni ta'minlashga doir vazifalari belgilandi.

Mahalla raisiga "yettilik" a'zolarining ishg kelishi va ketishi davomatini (tabelini) yuritish, asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) bo'yicha baho berish, har oyda kamida 10 tadan muammoli masalalarni hal etishini nazorat qilish, har haftada ularning hisobotini eshittish kabi vakolalar berildi.

Mablag'larni aholining ovozi ko'ra infratuzilma loyihalari yo'naltirish amaliyoti joriy qilinib, uning miqdori 3 barobarga ko'paytirish, yuzdan ortiq davlat xizmatlarini "bir qadam"da ko'rsatishni yo'lga qo'yish ishlari allaqachon boshlangan.

Mazkur qonun bilan "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari to'g'risida" va "Fuqarolar yig'ini raisi saylovi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonunlarida mahalla raisini saylash muddati 3 yildan 5 yilga o'zgartirildi.

"Fuqarolar yig'ini raisi saylovi to'g'risida"gi Qonunda

"fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini muvofiqlashtirish bo'yicha kengashlari" so'zlari mahallani qo'llab-quvvatlash kengashlari" so'zlariga o'zgartirildi.

Muhim o'zgartirishlardan yana biri – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Kengashi vakolatida bo'lgan fuqarolar yig'ini raisi saylovi o'tkazish muddatlari va tartibini belgilash normasi Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyat va Toshkent shahar Kengashlari vakolatiga, Respublika ko'maklashuvchi komissiyalarining vakolatlari viloyat ko'maklashuvchi komissiyaga o'tkazildi.

Qonunning hayotga tatbiq etilishi fuqarolar yig'ini saylovi tashkil qilish va o'tkazish tartibi yanada takomillashtirishga, tayyorgarlik tadbirlarini o'tkazish muddatlari va tartibini belgilovchi vakolalar nomarkazlashtirilishiga, fuqarolar yig'inlari raislarining bilim va qobiliyatlarini to'liq namoyon etishlariga xizmat qiladi.

Zumrad BEKATOVA, Oliy Majlis Senati a'zosi.

KELAJAK UCHUN SARMOYA

Davlatimiz rahbarining yoshlar bilan samimiy muloqot qilishi yigit-qizlarimizning kelajakka va o'ziga bo'lgan ishonchini yana bir karra oshirdi, desak, aslo yangilashmaymiz.

Fikr

Uchrashuvda Prezidentimiz yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan 3 ta muhim hujjat imzolaganini ma'lum qildi. Yigit-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini boshlashi, bandligini ta'minlashi uchun 400 million dollar ajratilishi belgilandi.

bu – tadbirkorlikni boshlash istagida yurgan ming-minglab yoshlarning ayni dildagi gap bo'ldi va o'z biznesini boshlamogochi bo'lganlar uchun katta imkoniyat degani.

bo'ldi. Ya'ni oliygoh bitiruvchilari uchun yangi tizim joriy qilinayapti. Milliy bankka 100 million dollar resurs ajratilib, u bitiruvchi yoshlarni ish bilan ta'minlashga mas'ul bo'ladi.

Bundan tashqari, qishloq yoshlari uchun imkoniyatlar ham o'z eshigini ochmoqda. Yer bilan tillasha oladigan yoshlar uchun o'tgan yili 56 ming gektar yer ajratilgan bo'lsa, bu yil Qoraqalpog'iston Respublikasi, Andijon, Jizzax, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida bo'sh turgan 3 300 gektar yer yangicha tartibda ijaraga beriladi.

Umuman, bu kabi keng imkoniyatlar, yaratilayotgan zarur sharoitlar yoshlarni yangi marralar sari ruhlantririb, o'z sohasi bo'yicha ish topish uchun kuchli turki beradi. Zotan, ko'pchilikda g'oya bor, lekin mablag' yo'q edi. Endi esa shartlar bor, yo'nalish bor, faqat harakat qilish qoldi loqso.

Otabek MUSURMONOV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.



# YAQIN SHARQDAGI ISTIQBOLLI HAMKOR



Davlatlarimiz o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini sarmoyalarni rag'batlantirish va o'zaro himoya qilish, madaniyat hamda san'at sohasidagi aloqalar, savdo-iqtisodiy va ilmiy-texnikaviy hamkorlik, ikki tomonlama soliqqa tortishning oldini olish, O'zbekiston va Kuvayt davlat bo'xona qo'mitalari o'rtasidagi hamkorlik to'g'risidagi hukumatlararo bitimlar tashkil etadi.

"Ikki davlat o'rtasida diplomatik munosabatlar 1994-yil iyul oyida o'rnatilgan bo'lib, 2001-yilda Toshkent shahrida Kuvayt Davlatining elchixonasi, 2004-yil noyabr oyida esa Al-Kuvaytda O'zbekiston Respublikasining elchixonasi ochildi. Bugungi kunga qadar ikki marta – 2004-yilda Kuvaytga va 2008-yilda O'zbekistonga oliy darajadagi tashriflar amalga oshirildi, – deydi elchi A. Yunusov o'z maqolida. – Masofa uzoq bo'lishiga qaramay, ikki davlat savdo-sarmoyaviy sheriklik va sanoat kooperatsiyasini kengaytirish uchun salmoqli salohiyatga ega. Tahlillar o'zaro mahsulotlar yetkazib berish, qo'shma korxonalar tashkil etish, yirik mintaqaviy bozorlarga chiqish uchun imkoniyatlardan to'liq foydalanish mumkinligini ko'rsatadi. Yaqin orada O'zbekiston va Kuvayt yetakchi tadbirkorlarining uchrashuvi bo'lib o'tishi kutilmoqda, bu esa yangi savdo shartnomalari va investitsiya loyihalarini amalga oshirish fursati yaqinligini namoyish etadi".

Nashrdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutining yetakchi ilmiy xodimi Aziz Karimovning "O'zbekiston va Kuvayt: o'zaro manfaatli hamkorlik sari" (Uzbekistan and Kuwait: Towards Mutually Beneficial Cooperation) nomli maqolasi ham o'rin olgan. "So'ngi yillarda yangilangan tashqi

siyosat konsepsiyasi doirasida O'zbekistonning an'anaviy hamkorlari bilan tashqi aloqalari mustahkamlanib, xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki faollashmoqda, sheriklik geografiasini kengaytmoqda, – deyiladi maqolada.

– Bu tendensiya O'zbekistonning Ko'rfaz davlatlari bilan munosabatlarini yangi bosqichga ko'tarish borasidagi sa'y-harakatlarida, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'lyapti. Mazkur mintaqada davlatlari bilan munosabatlar ham ko'p tomonlama, ham ikki tomonlama asosda rivojlanib borayotgani e'tibori. "Markaziy Osiyo – Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi strategik muloqoti"ning tashkil etilishi va 2023-yilda ushbu formatdagi birinchi oliy darajadagi sammitning muvaffaqiyatli o'tkazilishi fikrimizni yaqqol tasdiqlaydi. O'zbekiston mintaqada davlatlari bilan ikki tomonlama munosabatlarni mustahkamlash barobarida Kuvayt omiliga ham ustuvor e'tibor qaratmoqda. So'nggi paytlarda O'zbekiston Kuvayt bilan siyosiy muloqotni faollashtirdi. 2024-yil aprel oyida Kuvayt tashqi ishlar vaziri Abdulla al-Yahyo O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan qabul qilingan edi. Birgina 2024-yilning o'zida ikki davlat tashqi ishlar vazirlari o'rtasida besh marotaba muzokaralar bo'lib o'tdi. Iqtisodiyot idoralari va ishbiarmon doirlar o'rtasidagi muloqot ham faollashdi".

"Shuni ta'kidlash kerakki, – deydi muallif, – barcha yo'nalishdagi munosabatlarning faollashishi bejiz emas. Kuvayt O'zbekiston uchun har tomonlama foydali hamkor hisoblanadi. Bu bir necha omilarga bog'liq. Xususan, ikki davlatning tashqi siyosat konsepsiyalari juda o'xshash. O'zbekiston ham, Kuvayt ham o'z rivojlanish istiqbollari o'z mintaqalaridagi davlatlar bilan yaqin aloqada ko'radi. O'zbekiston Markaziy Osiyoning yaxlitligi va barqarorligida hal qiluvchi rol o'ynaganidek, Kuvayt Ko'rfaz davlatlari o'rtasidagi mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Yana bir e'tiborga loyiq omil – bu ikki davlatning iqtisodiy ahamiyati.

O'zbekiston iqtisodiyoti bo'yicha Markaziy Osiyodagi salohiyatli davlat bo'lsa, Kuvayt global va Yaqin Sharq iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan mamlakatdir".

Maqolada O'zbekiston va Kuvaytning savdo-sotiq, investitsiya, turizm, qishloq xo'jaligi, raqamli texnologiyalar, ta'lim va boshqa yo'nalishlardagi manfaatli sherikligini rivojlantirish mumkin bo'lgan sohalar ham ko'rsatib o'tilgan va chuqur tahlil qilingan.

Kuvaytning nufuzli jurnalida O'zbekiston Respublikasi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekovning

"O'zbekiston "aqlli" shaharni rejalashtirish va hududiy rivojlanish sohasida yangi marralarni ishg'ol etmoqda" (Uzbekistan conquering new frontiers in the field of Smart City Planning And Territorial Development) nomli maqolasi ham o'rin ajratilgan. "Ayni paytda O'zbekiston Respublikasi bilan Kuvayt o'rtasidagi ta'lim va ilmiy-texnikaviy hamkorlik yil sayin mustahkamlanib, yangi yo'nalishlarda kengaymoqda. Arab tili va adabiyoti, islomshunoslik, tibbiyot, turizm va iqtisodiyot kabi an'anaviy yo'nalishlar bilan bir qatorda, "aqlli shahar" loyihalarini

ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini kuchaytirishga qaratilgan yuzlab takliflar ishlab chiqildi. Hududlarni rivojlantirish sohasida O'zbekiston Kuvayt bilan hamkorlik tajribasiga asoslangan qator loyihalar ustida ishlamoqda. Kuvayt, asosan, raqamli texnologiyalar va "yashil" infratuzilmani integratsiyalashga qaratilgan bir nechta yirik "aqlli shahar" loyihalarini amalga oshirdi. "Aqli" shaharlar ko'pincha energiya tejaydigan tizimlar, quyosh panellari va energiya tejovchi qurilmalarga tayanadi. Shu sababli Kuvaytda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan, xususan, quyosh energiyasidan samarali foydalanish borasida katta ishlar bajarildi. Bugungi kunda shaharlarning xavfsizligi, ekologik barqarorligi va samaradorligi odamlarning tejovchi hayoti uchun eng muhim omillardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bois O'zbekistonda "Aqli shahar" konsepsiyasi ishlab chiqilib, loyihani amalga oshirish bo'yicha tajribalar olib borilmoqda".

Muallifning ta'kidlashicha, mazkur loyihalar orqali transport va logistika muammolarini yechish, sun'iy intellekt orqali yo'larni boshqarish va tirbandlikni kamaytirish, jamoat transporti samaradorligini ko'tarish mumkin. Bundan tashqari, jinoyatchilikning oldini olishda "aqlli" videokuzatuv kameralari, tahliliy dasturlar va sun'iy intellekt muhim o'rin tutadi. Shuningdek, atrof-muhitni, ya'ni havoni sifatini nazorat qilish, chiqindilarni qayta ishlash va energiya samaradorligi sohalari rivojlantirish mumkin".

Mualliflarning umumiy e'tirofiga ko'ra, barcha sohadagi hamkorlikni chuqurlashtirish va uni sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarishda davlatimiz rahbarining Kuvaytga amalga oshirgan tashrifi davomida imzolangan hujjatlar muhim o'rin tutadi. O'zbekiston va Kuvayt o'rtasidagi iqtisodiy va siyosiy, madaniy-gumanitar hamkorlik har ikki davlatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda yangi qadam bo'ladi.

A. SOYIBNAZAROV ("Xalq so'zi") tayyorladi.



## Kuwait a reliable friend, trusted partner of Uzbekistan

Diplomatic relations between the two countries were established in July 1994. In 2001, the Embassy of the State of Kuwait was opened in Tashkent, and in November 2004, the Embassy of the Republic of Uzbekistan was opened in Kuwait. To date, there have been two high-level visits – in 2004 to Kuwait and in 2008 to Uzbekistan.

"O'zbekiston va Kuvayt davlati o'rtasidagi diplomatik munosabatlar yangi bosqichga ko'tarilmoqda" (Diplomatic Relations Between Uzbekistan and the State of Kuwait Are Reaching a New Level) nomli maqolasi chop etilgan. Unda Kuvayt bilan madaniy hamkorlikning bugungi holati va dinamikasi tahlil qilinadi, kuvaytlik madaniyat va san'at namoyandalari yurtimizda o'tkazilgan turli festivallar, madaniy tadbirlar, forumlarda ishtiroki haqida so'z boradi. "Ikki tomonlama hamkorlikni yanada mustahkamlash, o'zbek madaniyati va san'atini Kuvayt xalqiga tanishtirish maqsadida 2025-yil Kuvaytda O'zbekiston madaniyati kunlari"ni tashkil etish rejalashtirilgan. Bundan tashqari, madaniy turizmni rivojlantirish, ikki mamlakat madaniyat va san'at muassasalari o'rtasida qo'shma ta'lim dasturlarini amalga oshirish bo'yicha amaliy qadamlar qo'yiladi," deydi muallif.

"The Times Kuwait" jurnalida Toshkent arxitektura-qurilish universiteti rektori Bahrom To'laganovning

amalga oshirishda ikki davlat o'rtasida hamkorlik faol yo'lga qo'yilmoqda, – deydi B. To'laganov. – Bu nafaqat ta'lim va fan, balki innovatsiya va texnologiya sohasida ham yangi imkoniyatlar eshigini ochyapti. Kuvaytning yetakchi ishlab chiqaruvchilari ishtirokida O'zbekistonda zamonaviy ilmiy-texnik majmualar, biznes-inkubatorlar va startap akseleratorlarni birgalikda yaratish bo'yicha keng ko'lami loyihalarni amalga oshirish innovatsion g'oyalari, ixtirolar va texnologiyalarni rivojlantirish hamda tijoratlashtirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mazkur tashabbuslar ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, iqtisodiyotning strategik tarmoqlarida ilg'or texnologiyalarga o'tishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekistonda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda ilm-fanning o'rni beqiyos bo'lib, bu jarayonda "Aqli shahar" konsepsiyasini hayotga tatbiq qilish strategik ahamiyatga ega. Joriy yilda amalga oshirilgan tadqiqot va tahlillar natijasida Oliy

# O'ZBEKISTONNING KO'RFUZDAGI ISHONCHLI SHERIGI

O'zbekiston ham, Kuvayt ham o'z rivojlanish istiqbollari mintaqalaridagi davlatlar bilan yaqin aloqada ko'radi. O'zbekiston Markaziy Osiyoning yaxlitligi va barqarorligida hal qiluvchi rol o'ynaganidek, Kuvayt Ko'rfaz davlatlari o'rtasidagi mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Yana bir muhim jihati, mamlakatlarimiz xalqaro tashkilotlardagi ishtiroki doirasida umumiy yondashuvlarga ega. Masalan, O'zbekiston va Kuvayt BMT, Islom hamkorlik tashkiloti yig'inlarida o'xshash fikr hamda takliflarni ilgari surayotir. Har ikki davlat xalqaro xavfsizlik muammolarini hal etish, barqaror va inkluziv rivojlanishga ko'maklashish bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlarini yoqlaydi. O'zbekiston ham, Kuvayt ham iqtisodiy rivojlanish strategiyalarini belgilab olish bilan birga, iqtisodiyotni modernizatsiya hamda diversifikatsiya qilishni o'z ichki kun tartibining markaziga qo'gan. Bu maqsadlar "Yangi O'zbekiston – 2030" va "Nigoh – 2035" strategiyalarida o'z ifodasini topgan.

Iqtisodiy taraqqiyotning zamonaviy arxitekturasini

Iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishga O'zbekiston va Kuvayt birdek qiziqish bildiriyapti. Bu ikki davlatning xalqaro va mintaqaviy moliyaviy-geografik ahamiyati va strategik maqsadlari bilan chambarchas bog'liq.

O'zbekiston Markaziy Osiyoda strategik muhim geografik o'rinni egallaydi, chunki u mintaqadagi mamlakatlar bilan chegaradosh bo'lgan yagona davlat. O'zbekiston, shu bilan birga, Yevrosiyo bozorlariga chiqish darvozasi. Bundan tashqari, mamlakatimiz asosiy xalqaro quuruqlik yo'llari chorrahasida joylashgan. Bu O'zbekiston va butun Markaziy Osiyo jahon iqtisodiyotining yangi modelida o'z mavqegini mustahkamlab,

Sharq hamda G'arbni bog'lovchi an'anaviy transport yo'lagi sifatidagi rolini tiklayotganini anglatadi.

Kuvaytning joylashuvi ham mintaqaviy, ham global miyosida strategik ahamiyatga ega. U dengiz savdo yo'llari chorrahasida, Yaqin Sharq mintaqasining



markazida joylashgan. Yuqoridagi omillar O'zbekiston va Kuvayt o'rtasidagi sanoat hamkorligi har ikki davlatga uchinchi mamlakat bozorlariga chiqish uchun qulay imkoniyatlar yaratishidan dalolat beradi.

Yana bir e'tiborga loyiq omil, O'zbekiston iqtisodiyoti bo'yicha Markaziy Osiyodagi salohiyatli davlat. Oxirgi yetti yil ichida mamlakat yalpi ichki mahsuloti (YAIM) ikki barobar oshdi. O'tgan yil yakuniga ko'ra O'zbekistonda YAIM avvalgi yildagiga nisbatan 6,5 foizga o'sib, 115 mlrd. dollarga yetdi. Global va Yaqin Sharq iqtisodiyoti uchun katta ahamiyatga ega bo'lgan Kuvaytning yalpi ichki mahsuloti esa 162 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi.

Kuvayt global energiya xavfsizligining zamonaviy arxitekturasida o'ziga xos o'rinni egallaydi. U neft eksporti borasida yetakchi o'nta davlatdan biri va zaxiralarga ko'ra Ko'rfazda ikkinchi, dunyoda esa oltinchi

o'rinda. O'zining boy resurslari tufayli jon boshiga to'g'ri keladigan iqtisodiyot bo'yicha dunyoda eng yirik davlatlardan biri.

Shu nuqtayi nazardan, hamkorlikning bir qancha yo'nalishlari O'zbekiston va Kuvayt uchun, ayniqsa, foydali deydish mumkin. Masalan, savdo

Munosabatlardagi muhim yo'nalish

Turizm ham hamkorlikning asosiy drayverlaridan sanaladi. 2022-yilda Kuvayt xizmatlari importining deyarli yarmi shu soha bilan bog'liq. Ko'rfazdan sayyohlar sonini ko'paytirish maqsadida O'zbekiston bu

dunyodagi insonni qiziqirmay qolmaydi, albatta. Gumanitar yo'nalishda mamlakatlarimizda milliy madaniyat haftaliklari, madaniy meros ko'rgazmalari tashkil etilishi ham xalqimizni yanada yaqinlashtirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston raqamli iqtisodiyotga o'tishga katta kuch va mablag' sarflayotgan davlat. Xuddi shunday Kuvayt ham. Uning AKT bozori 22 mlrd. dollardan oshadi, O'zbekistonning raqamli iqtisodiyoti esa qariyb 4,5 mlrd. dollarga baholanmoqda. Shu bois Kuvaytning raqamli infratuzilmani iqtisodiyotga muvaffaqiyatli integratsiyalash borasidagi boy tajribasi biz uchun ayni muddao. Bu "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasining ustuvor maqsadlariga hamohangdir.

Qishloq xo'jaligini ham aloqalarning istiqbolli yo'nalishiga aylantirish imkoniyati katta. Deylik, Kuvayt qishloq xo'jaligi imkoniyatlarini cheklangan bo'lib,

yetakchi ishlab chiqaruvchilari ishtirokida O'zbekistonda zamonaviy ilmiy-texnik majmualar, biznes-inkubatorlar va startap akseleratorlarni birgalikda yaratish bo'yicha keng ko'lami loyihalarni amalga oshirish innovatsion g'oyalari, ixtirolar hamda texnologiyalarni rivojlantirish va tijoratlashtirishda hal etuvchi rol o'ynaydi. Va mazkur tashabbuslar ilmiy izlanishlar samaradorligini oshirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, iqtisodiyotning strategik tarmoqlariga ilg'or texnologiyalarni joriy qilishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Hududlarni rivojlantirish borasida ham O'zbekiston Kuvayt bilan hamkorlik tajribasiga asoslangan qator loyihalar ustida ishlamoqda. Kuvayt, asosan, raqamli texnologiyalar va "yashil" infratuzilmani integratsiyalashga qaratilgan bir nechta yirik "aqlli shahar" loyihalarini amalga oshirdi. "Aqli" shaharlar ko'pincha energiya tejaydigan tizimlar, quyosh panellari va energiya tejovchi qurilmalarga tayanadi. Shu bois O'zbekistonda "Aqli shahar" konsepsiyasi ishlab chiqilib, loyihani amalga oshirish bo'yicha tajribalar olib borilyapti. Zotan, urbanizatsiya bilan bog'liq muammolarni hal qilish, ekologik vaziyatni yaxshilash va xavfsizlikni ta'minlashda "aqlli" texnologiyalar muhim o'rin tutadi.

Ta'kid shuki, Markaziy Osiyo mintaqasiga boshqa davlatlar qatori arab mamlakatlarining qiziqishi kuchaygan, u bozor qonuniyatlariga asoslangan sog'lom hamkorlik doirasida kengayib borishi muqarrar. O'zbekiston Prezidentining Kuvaytga tashrifi davomida erishiladigan bitimlar, kelishuv va ahdnomalar har ikki davlat va mintaqalarimizning iqtisodiy imkoniyatlarini kengayishiga, xalqimizning farovonligi oshishiga xizmat qiladi.

Ayni paytda ikki davlat o'rtasidagi ta'lim hamda ilmiy-texnikaviy hamkorlik yil sayin mustahkamlanib, yangi yo'nalishlarda yanada kengaymoqda. Kuvaytning

## Dil so'zi

# JAHON ARENASIDAGI ZAFARLAR MAKTABDAN BOSHLANADI

Bugungi kunda jahonning yetakchi davlatlari qatori mamlakatimizda ta'limni rivojlantirish, sifatini oshirish masalalariga birinchi galdagi vazifa sifatida qaralmoqda.

Yurtimizda o'qituvchilarning maqomi konstitutsiya darajasida belgilab qo'yilgan. Bu esa davlatning ilm-fan, ma'rifat va ta'lim bo'yicha tub islohotlar qilishga chog'langanidan dalolat.

Checkka qishloqdagi oddiy oilada tug'ilib o'sganman. Ota kasb – muallimlikni tanlab, avvaliga maktabda tarix fanidan dars berdim. So'ngra Yoshlar ittifoqi va boshqa tashkilot-idoralarda faoliyat olib bordim. O'tgan yildan boshlab Sirdaryo viloyatining Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi rahbariman.

Olimpiya va paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish, aholi jismoniy faolligini oshirish chora-tadbirlari bo'yicha o'tkazilgan videoselektorlar Prezidentimiz tomonidan kamtarona mehnatim yuksak e'tirof etilganidan, e'tibordan boshim ko'kka yetdi.

Ochig'i, Prezidentimiz Farmoni bilan "Do'stlik" ordeniga sazovor bo'lganim butun Sirdaryo pedagog-xodimlariga ham katta quvonch bag'ishladi. Buni ayni kunlarda viloyatimizdagi maktabgacha va maktab ta'limi tizimi muassasalari ishlayotgan pedagog-xodimlarning videoselektorlar Prezidentga bergan va'damizni bajarishga hissa qo'shishga sidqidildan kirishgani dalolatdir. Albatta, yosh avlodni sport bilan qamrab olishda maktablarning yuqori malakali mutaxassis pedagoglar bilan ta'minlanishi muhim omil hisoblanadi.

Xususan, viloyatimizdagi 312 maktabda o'z kasbiga fidoyi 884 nafar jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi faoliyat yuritmoqda. Ta'kidlash o'rinliki, bugunning o'qituvchisi o'z fanini chuqur bilishi, fan metodikasini puxta o'zlashtirib olgan bo'lishi zarur. Zero, o'qituvchi salohiyatli bo'lsa, ta'limda sifat bo'ladi. Shu jihatdan, "Umumiyy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Prezident



qarori maktablardagi jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari faoliyatini yangi bosqichga ko'tardi. Mazkur qaror ijrosi bo'yicha maktablarda haftaning har shamba kuni "sport kuni" deb belgilandi. O'quvchilarni yosh kesimida uch toifaga, 1 – 4-sinf, 5 – 8-sinf va 9 – 11-sinflarga ajratib oldik. Ya'ni yosh toifasidan kelib chiqib, o'quvchilarni olimpiya, ommaviy va harakatlari o'yinlar sport turlariga birlashtirish bo'yicha ishlar bosqichma-bosqich tashkil etilmoqda. Shuningdek, maktablarda "Maktab sport klublari" faoliyati ham yo'lga qo'yildi.

Mazkur videoselektorlarda ommaviy sportni rivojlantirish va bo'lajak Olimpiya, paralimpiya hamda jahon chempionlarini tarbiyalab, kamolga yetkazishda maktablarning o'rni beqiyos ekanligi ta'kidlandi. Bolalar va o'smirlar sportini rivojlantirish uchun qator vazifalar belgilandi. Bundan kelib chiqib, maktabgacha va maktab ta'limi xodimlari ushbu vazifalarni bajarishga katta mas'uliyat bilan yondashyapmiz. Negaki, Vatanimiz nomini ulug'laydigan bo'lajak chempionlarning yo'li ayni maktabgacha va maktab ta'limi maskanlaridan boshlanadi.

Nargiza XOLBOYEVA, Sirdaryo viloyatining Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'i, "Do'stlik" ordeni sohibasi.

## BINOLARNI HIMOYALASHNING INNOVATSION YECHIMI

Xiva shahrida termitlarga qarshi kurashda yangi yondashuv ishlab chiqildi. Xorazm Ma'mun akademiyasi olimlari tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida termitlar bilan samarali kurashish uchun yangi yem-xo'rak va tuproq ostidan ishlov berish qurilmasi yaratildi.

## Kashfiyot

Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Axborot xizmati ma'lum qildi.

Unga ko'ra tayyorlangan yem-xo'rak, "Metarhizium anisoplae" va "Baveriya tenella" zamburug'lari aralashmasi hamda "Ferulla" o'simligi poyasi yordamida ishlab chiqilgan. Yem-xo'rak, nam va qorong'i joylarda termitlar tomonidan uyusga olib ketiladi va zamburug'lar ular orqali tarqalib, termit oilasida kasallikni keltirib chiqardi. Ushbu jarayonning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, termitlarga qarshi biologik kurashni yanada samarali qilishga imkon yaratadi.

Shuningdek, hududdagi Yangi turmush mahallasidagi

aholi xonadonlari uchun tuproq ostidan ishlov berish qurilmasi qo'llanildi. "Ijektor" usuli yordamida termitlar tomonidan zararlangan uylarga tuproq ostidan xavfsiz tarzda ishlov berildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ishlov berilgan uylar termitlardan himoyalangan, ishlov berilmagan uylar esa termitlar tomonidan zararlangan.

Ushbu innovatsion yechimlar, termitlarga qarshi kurashda yangi davrni boshlash va binolarni samarali himoya qilishga yordam beradi. Bu yondashuv nafaqat Xiva, balki butun O'zbekiston bo'yab qadimiy inshootlarni termitlardan himoyalashda muhim ahamiyatga ega.

"Xalq so'zi".

Samarqand davlat tibbiyot universiteti jamoasi universitetning Otorinolaringologiya kafedrasini professori, tibbiyot fanlari doktori

Umrillo LUTFULLAYEVning vafoti munosabati bilan marhumning oila a'zolari hamda yaqinlariga chuqur ta'ziya izhor qiladi.

Poytaxtimizda "Barqaror taraqqiyot: inkluziv ta'lim va xotin-qizlar tashabbuslari" V xalqaro forumi bo'lib o'tdi.



**Bugungi kunda biz mard va matonatli xalqimizga, serg'ayrat yoshlarimizga ishonganimiz uchun o'z oldimizga katta-katta maqsadlar qo'ymoqdamiz, marrani baland olmoqdamiz. Kelgusida Uchinchi Rennans poydevorini yaratadigan yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Mirzo Ulug'bek va Alisher Navoiylar qayerdan paydo bo'ladi? Bu ulkan vazifalarni kim bajaradi? Men qayta-qayta takrorlashdan charchamayman. Albatta, bu ezgu g'oyalarni sizlar – bugungi Yangi O'zbekiston yoshlari amalga oshirasizlar.**

**Shavkat MIRZIYOYEV,  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**

# ENG GULLAGAN Yoshlik CHOG'IMDA

Yoshlik – inson umrining bahori.  
Shu bois unda doim quyosh charaqlaydi.  
Orzu-maqsadlar musaffo osmon kabi tiniq bo'ladi.  
Kelajakka umid kurtaklari barg yozadi. Jismu ruhda o'sish, uyg'onish, ko'kka bo'y cho'zish ustuvor bo'ladi.  
Shu bois mamlakatimizda yoshlar kamolotiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. 14-fevral kuni Prezident Shavkat Mirziyoyevning yoshlar bilan muloqoti hamda unda ilgari surilgan hayotbaxsh taklif va tashabbuslar buning yana bir yaqqol ifodasi bo'ldi.



## IMKONIYATLAR ESHIGI OCHILDI, QOLGANI O'ZIMIZGA BOG'LIQ

**Muhammad DILMURDZODA,  
"Muhandis D" loyihasi muallifi, fizika fani o'qituvchisi:**

– Bilasizmi, kayfiyatim shu qadar ko'tarinki! Shu ondan o'z jiddi jahd bilan ishimni yanada rivojlantirish borasida bosh qotiryapman. Zero, biz, yoshlarga ko'pdan-ko'p imkoniyatlar eshigi ochildi. Eng muhimi shuki, barcha harakatlar navqiron avlodning ilm olishi, ma'rifati bo'lishiga qaratilgan.  
Uchrashuvda vatanparvarlik, ajdodlarga munosib

avlod bo'lish, o'zbek xalqi buyuk millat sifatida ne-ne ulug' allomalarni yetishtirib berganini anglab yetish lozimligi kabi vazifalar ustuvor qilib belgilandi. Davlatimiz rahbarining minbarga chiqqan har bir tengdoshimiz so'zlarini diqqat bilan tinglab, alohida yondashib aniq yo'nalish, lozim bo'lsa, masalaning yechimini ko'rsatib berganlari meni hayratga soldi.

## TADBIRDAN KATTA MOTIVATSIYA BILAN CHIQDIM

**Jahongirmirzo IBROHIMOV,  
"Muhandisona" korxonasi rahbari:**

– To'g'risi, bunday katta tadbirga ilk bor ishtirok etdim. Uchrashuvda davlatimiz rahbari tomonidan biz, yoshlarga ulkan imtiyozlar belgilab berildi. Tadbirdan katta motivatsiya bilan chiqdim. Biz IT sohasida o'zbek yoshlarining mahsulotlari, yutuqlarini ingliz tilida mahalliy va xalqaro auditoriyaga namoyish etib kelamiz. Ilmiy kontentlarimiz yetti yuz million marta ko'rilmog'da. Uchrashuv avvalida shu ko'rsatkichni bir milliardga yetkazmoqchi edim.

Prezidentimiz tomonidan berilayotgan imtiyozlarga ishongan holda, aytalimanki, bu raqamlarni besh milliardga ko'taramiz. Endi tadbirkor yoshlarga 2,5 milliard so'mgacha imtiyozli kreditlar, startap loyihalarga 2 milliard so'mgacha investitsiya kiritiladi. Bunday ulkan imkoniyatni, ochig'i, kutmagandim. Endilikda bundan oqilona foydalanib, ko'zlangan maqsadni amalga oshiramiz.

## REJALARIMNI YANA BIR KARRA OYDINLASHTIRIB OLDIM

**Rustam QORIYEV,  
"Ibrat farzandlari" loyihasi asoschisi:**

– Yoshlarga qanot beradigan yangi takliflar, ular uchun imkoniyatlarni kengaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar... Shu jihatdan ushbu muloqotni tarixiy deb atasak, ayni haqiqat. Prezidentimiz bilan bir marta muloqot qilgan odamning hayoti butkul o'zgarib ketadi.

Davlatimiz rahbari menga "Shuhrat" medalini topshirayotgan chog'da "Prezident sen bilan!" degan edi. Shu so'zlar menga baland ruh, yangi kuch, g'ayrat-shijoat berdi. Qolaversa, zimmaimga ulkan mas'uliyat ham yukladi. Har kuni reja bilan ish boshlar eknaman, keyingi gal uchrashuvda Prezidentga qanday natija bilan yuzlanaman, yoshlarga qanday namuna bo'laman, degan savolni o'zimga beraman. Ayni

uchrashuv ham ulkan taassurotlarga boy o'tdi. Kelgusidagi rejalarimiz, qarashlar va maqsadlarimni o'zim uchun yana bir karray oydinlashtirib oldim.

Davlatimiz rahbari tashabbusi bilan qator tillarni o'rganishga mo'ljallangan "Ibrat farzandlari" ilovasi yaratildi. Mamlakatimizning olis-yaqin hududlarini qamrab olgan ushbu loyiha doirasida uch mingdan ortiq videomateriallar yuklandi. Qisqa vaqtda ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarda obunachilar soni sakkiz yuz mingga yetdi. Ayni paytda ilovaning o'zidan to'g'ridan-to'g'ri ikki million foydalanuvchi o'zbek, rus, ingliz, nemis, turk, arab, fransuz, koreys, ispan, xitoy va boshqa tillarni bepul o'rganmoqda. Ayni paytda amalga oshirayotgan ishlarimizni yanada kengaytirish uchun o'zimdagi yangi shijoatni his qilyapman.

## BIZ XORAZMIY VORISLARIMIZ

**Shahnoza QALANDAROVA,  
Yoshlar ishlari agentligining Xorazm viloyati boshqarmasi axborot xizmati rahbari:**

– Har gal Yurtboshimiz yoshlar masalasiga alohida yondashib, muammolarimizni yechimini biz kutgandan ortig'i bilan hal qilib beradi. Bugun "ommaviy madaniyat" va ongu qalbag qaratilgan axborot xurujlari avj olgan davr. Shu bois Prezidentimiz milliy kontentlar yaratish, ijtimoiy tarmoqlardagi tahdidlarga qarshi ma'naviy immunitetni shakllantirish borasida ham ko'plab topshiriqlar berdi. Ushbu

yo'nalishdagi ijodiy ishlarni yo'lga qo'yish uchun Yoshlar ishlari agentligi tomonidan 100 million so'mgacha grantlar berilishi e'lon qilindi.

O'tgan yil Xorazmda IT sohasida "Muhammad Xorazmiy vorislari" loyihasi muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Bu yil ushbu loyihani Qoraqalpog'istonda ham joriy etish, dasturchi qizlar sonini 2 barobar oshirish, yurtimizda 1 ming nafar iqtidorli qiz IT oromgohlarida xalqaro olimpiadalarga tayyorlanishi rejalashtirilgan. Bu kabi tadbirlar biz, yoshlarni yangi marralar, ulug'vor maqsadlar sari chorlamog'da.

## MA'NAVIYAT BOSHQA SOHALARDAN O'N QADAM OLDINDA YURISHI LOZIM

**O'lmasbek ABDURAHMONOV,  
aktyor:**

– Qariyb bir yildan buyon milliy qadriyatlarimizga mos keladigan milliy kontent yaratib, ommaga havola etib kelaman. Prezidentimiz ma'naviyat boshqa sohalaridan ko'ra o'n qadam oldinda bo'lishi kerak, degan fikrni ta'kidlagan edi. Xo'sh, bu borada bir yosh sifatida men nima bajara olaman? Yozaman va jiro qilaman. Ana shu mahoratimni ishga solgan holda jamiyatimizda insonlarni, xususan, yoshlarni qiyinab kelayotgan muammolarni, ularning hayotini zaharlaydigan salbiy odatlarni obrazli tarzda aks ettiraman.

Jamoamiz bilan ilk marotaba "Kurash – hayot davom etadi" milliy serialini tasviroga o'ldik va uni internet global tarmog'iga yuklaganimizda o'ttiz milliondan ko'p tomosha qilindi. Hozir serialning ikkinchi mavsumini tasviroga olish ishlarini boshlab yubordik.

Ma'naviyatning eng asosiy ustunlaridan biri, shakshubhasiz, teatr. Rivojlangan mamlakatlar tajribasini o'rganib ko'rganimizda an'anaviy teatrdan ko'ra eksperimental teatringa ta'sir doirasini kengligini kuzatdik. Shu sabab ham uchrashuvda Yoshlar ishlari agentligi qoshida eksperimental teatr-studiya tuzish taklifini bildirdim. Jamoamiz bilan birga jadidlarimizning g'oyalari zamonaviy tarzda, yangicha ko'rinishda yoshlarga yetkazishni maqsad qilib qo'ydik.

Uchrashuvda Prezident "Yoshlar – xalqimizning, Vatanimizning oltin fondi", deya alohida ta'kidladi. Mana shu e'tirofga, g'amxo'rlikka munosib bo'lish har birimizning muqaddas burchimizga aylanishiga ishonaman.

## XAYRLI ISLOHOTLARDA FAOL BO'LISHIMIZ KERAK

**Otabek SOBITOV,  
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi:**

– Har gal davlatimiz rahbari bilan ko'rishganimizda ulkan kuch, quvvat olamiz. Mazkur uchrashuvda ham bizga yanada baland marralarni qo'yib berilarki, hech bir soha e'tibordan chetda qolmadi. Tadbirkorlik deymizmi, biznesni qo'llab-quvvatlashmi, tomorqachilik yoki yoshlarni oliy ta'limga qamrab olish ko'rsatkichini ko'tarishmi, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami deymizmi – barcha-barcha sohada bildirilgan takliflarni sinchkovlik bilan tinglab o'z munosabatlarini bildirdi. Muddao bitta – yoshlarga qanot bo'lish, ozurlariga yetishtirish.

Ertamiz egalarining xorijda ta'lim olishlariga ko'maklashuvchi "Yorqin iste'dod" loyihasi, yangi avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga qaratilgan "Vatan tayanchi" harakatini davom ettirish masalalari bugungi globalashuv zamonida ayni muddao, deb o'ylayman. Davlatimiz rahbari tomonidan yoshlar bandligini ta'minlash, ishsizlikka barham berish borasidagi tashabbuslar ham qo'llab-quvvatlandi. Biz esa boshlangan bunday xayrli islohotlarni tengdoshlarimizga yetkazishda faol, harakatchan bo'lish, o'z navbatida, siyosiy jarayonlarda qizg'in ishtirok etishimiz lozim.

## OLTIARIQDAN – HARVARDGACHA

**Azizbek ZAYLOBIDDINOV,  
AQSHning Harvard universiteti talabasi,  
"Ibrat debati" loyihasi rahbari:**

– Harvard universiteti bakalavr bosqichida tahsil olish uchun yuz foizlik grant yutdim. Farg'onada, oddiy oilada tug'ilib, voyaga yetdim. Prezidentimiz tashabbuslari bilan o'zim singari moddiy qiyinlangan oila farzandlari uchun yaratib berilgan imkoniyatdan foydalanishda holda shu natijaga erishdim, deb o'ylayman.

Bundan ikki yil muqaddam "Ibrat farzandlari" loyihasi doirasida dunyoning eng nufuzli "TOP – 100" universitetiga tayyorlaydigan

ilmiy oromgohda ishtirok etdim. O'shanda chet elda o'qish niyatim borligini eshitganlar orasida "Harvard qayerdayu, Oltiariq qayerda?" deguvchilar ham topildi. Yetti-sakkiz yil ilgari bunday yutuqlarni, hatto orzu qilish ham imkonsiz edi, desam, adashmagan bo'laman. Kelgusida bilim va malakalarimni oshirib, yetuk kadr sifatida jonajon Vatanimizning taraqqiyoti uchun o'z hissamini qo'shish yo'lida bor kuch-g'ayratimni ayamayman.

## BERILGAN IMTIYOZLAR YANGI MARRALARGA RUHLANTIRADI

**Laylo ASLONOVA,  
Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi, xalq deputatlari Yakkasaroy tumani Kengashi deputati:**

– Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan yangi imkoniyatlarni eshitib, chindan ham boshim ko'kka yetdi. Yosh pedagog, tadqiqotchi o'laroq har bir siyosiy o'zgarishlarni kuzatib, tahlil qilib boraman. Bilasizmi, bugun yoshlar xoh mamlakatimiz, xoh dunyoning narigi chekkasida bo'ladi – barchasi tinglanib, tashabbuskor g'oyalarni ro'yobga chiqarish uchun qo'llab-quvvatlanayotib. O'sib kelayotgan yosh avlodga berilayotgan inson va imtiyozlar ortib bormog'da. Ana shunday imkoniyatlardan biri Yoshlar parlamentiga asos solingani bo'ldi.

Haqiqatan ham, bu tajriba siyosiy jarayonlarda faollik, demokratiya, parlamentarizm maktabi bo'lib xizmat qilmoqda. Hududlardagi yigit-qizlarning ovozini tinglab, ularni parlamentda eshittirish asosiy maqsadimiz ekanini yana bir bor ta'kidlamog'chiman.

## KO'NGILGA TUYGAN NIYATLARIM BOR

**Barno ROZIYOVA,  
"LinguaBarno" loyihasi asoschisi, ingliz tili fani o'qituvchisi:**

– O'z yo'nalishim bo'yicha fikr bildiradigan bo'lsam, ingliz tilidan "S1" darajasiga ega bo'lgan o'qituvchi-yoshlar uchun yurtimizning olis va chekka hududlarida o'quv markazlari ochishiga ham moliyaviy, ham ma'naviy ko'mak berilishi soha vakillari uchun yangilik bo'ldi. Xorijiy tillarni o'qitishga oid kontentlar yarataman.

Endilikda yoshlarni ma'naviyatimizga zid xatti-harakatlardan qaytaruvchi, milliy madaniyatimizni targ'ib etadigan, qadriyatlarimizga mos bo'lgan o'zbekona ruhdagi mediamahsulotlar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar auditoriyasiga havola qilmoqchiman.

Shu bilan birga, o'quvchilarimizning xalqaro sertifikatlarning eng yuqori ko'rsatkichlarini qo'lga kiritishi uchun aстойid harakatda bo'lishni, ularni "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiatlari safiga qo'shib, dunyoning nufuzli universitetlarida tahsil olishiga ko'maklashishni o'z oldimga maqsad qilib qo'ydim.

"Xalq so'zi".

## XALQIMIZNING, VATANIMIZNING OLTIN FONDI

**Mamlakatimizda yoshlarni qo'llab-quvvatlash, bandligini ta'minlash, intilishlariga sharoit yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan:**

o'tgan 8 yilda yosh tadbirkorlar soni **3 karray** ko'payib, ular bugun biznes vakillarining salkam **40 foizini** tashkil etmoqda;  
"yoshlar daftari" orqali o'tgan yili **180 ming** nafar yoshga **345 milliard** so'mlik yordam ko'rsatildi;  
hozirgi vaqtda dunyodagi nufuzli universitetlarda **1,5 mingdan** ziyod talabalarimiz tahsil olmoqda. Ilmiy darajali yosh olimlarimiz soni ham **2 karray** ko'payib, **4 mingdan** oshdi.  
Shuningdek, so'nggi uch yilda til o'rganayotgan yoshlar soni **2 millionga** yetdi.



**Har yili mehnat bozoriga 600 mingdan ortiq yigit-qizlar kirib kelmoqda. 2030-yilga borib, bu ko'rsatkich 1 million nafarga yetadi.**

**Xalq so'zi  
Narodnoe slovo**

**MUASSISLAR:  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi  
Senati Kengashi**

**Bosh muharrir O'tkir RAHMAT**

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-242. 15 479 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



**TELEFONLAR:  
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.**



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

**MANZILIMIZ:  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir A. Soyibnazarov.  
Musahhah S. Islomov.**

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili:  
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 21.00 Topshirildi – 23.55 **1 2 3 4 5 6**